

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4

“YASHIL” IQTISODIYOTGA O‘TISHDA INNOVATSIYALARНИ  
KENG JORIY QILISH VA BARQAROR IQTISODIYOTNI  
INSTITUTSIONAL TARAQQIY ETTIRISH DOLZARBLIGI

INSTITUTIONAL DEVELOPMENT OF A SUSTAINABLE  
ECONOMY AND WIDE IMPLEMENTATION OF INNOVATIONS  
DURING THE TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ УСТОЙЧИВОЙ  
ЭКОНОМИКИ И ШИРОКОЕ ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИЙ ПРИ  
ПЕРЕХОДЕ К “ЗЕЛЕНОЙ” ЭКОНОМИКЕ

Onlayin xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2024-yil 20-may



MAXSUS SON



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# **Yashil**

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinosari:**

**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**

**Qurbanov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

**Rae Kvon Chung**, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinosari

**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, i.f.d., prof., O'zR Majlis qonunchilik palatasi deputati

**Xudoqulov Sadirdin Karimovich**, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, i.f.d., TMI professori

**Samadov Asqarjon Nishonovich**, i.f.n., TDIU professori

**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori

**Axmedov Ikrom Akramovich**, i.f.d. TDIU professori

**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor

**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, i.f.d., TDIU professori

**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori

**Musyeva Shoira Azimovna**, SamDu IS instituti professori

**Axmedov Javohir Jamolovich**, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinosari

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi

**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti

**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti

**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, i.f.f.d., TDIU dotsenti

**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Afraganus universiteti dotsenti

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Utayev Uktam Choriyevich**, O'zR Bosh prokururasi boshqarma boshlig'i o'rinosari

**Ochilov Farxod**, O'zR Bosh prokururasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi

**Ekspertlar kengashi:**

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiy fanlari doktori, professor

**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti

**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti

**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti

**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi,  
O'zR Bosh prokururasi huzuridagi IJQK departamenti.

I shu'ba  
IJTIMOIY-IQTISODIY BARQAROR RIVOJLANISH  
MAQSADLARIGA ERISHISH UCHUN "YASHIL" IQTISODIYOTGA  
JADAL O'TISH

Section I  
ACCELERATED TRANSITION TO A GREEN ECONOMY TO  
ACHIEVE SOCIO-ECONOMIC SUSTAINABLE DEVELOPMENT  
GOALS

I секция  
УСКОРЕННЫЙ ПЕРЕХОД К "ЗЕЛЕНОЙ" ЭКОНОМИКЕ ДЛЯ  
ДОСТИЖЕНИЯ ЦЕЛЕЙ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО  
УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ





# OZIQ-OVQAT BOZORINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH YO'NALISHLARI



**Abduraxmonov Adxamjon Sultonboyevich**

Namangan muhandislik-qurilish instituti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqloda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish zaruriyati borasidagi bir qator nazariyalar o'rganilgan. Oziq-ovqat bozorini davlat tomonidan tartibga solishning tarmoq va mintaqaviy xususiyatlarga oshib berilgan. Oziq-ovqat bozorini davlat tomonidan tartibga solish yo'nalishlari tahlil qilingan. Oziq-ovqat bozorini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog'liq ilmiy xulosalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** davlat, oziq-ovqat bozori, oziq-ovqat mahsulotlari, siyosat, aholi, import, tartibga solish.

**Abstract:** The article explores a number of theories about the need for state regulation of the economy. Sectoral and regional features of state regulation of the food market are revealed. The direction of state regulation of the food market is analyzed. Scientific conclusions are given regarding the improvement of mechanisms of state regulation of the food market.

**Key words:** state, food market, food products, policy, population, import, regulation.

**Аннотация:** В статье исследуется ряд теорий о необходимости государственного регулирования экономики. Выявлены отраслевые и региональные особенности государственного регулирования продовольственного рынка. Анализируются направления государственного регулирования продовольственного рынка. Даны научные выводы относительно совершенствования механизмов государственного регулирования продовольственного рынка.

**Ключевые слова:** государство, продовольственный рынок, продовольственные товары, политика, население, импорт, регулирование.

Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasida davlatning bozor munosabatlarini tartibga solishdagi ishtiroti va uning muayyan chegaralari haqidagi g'oyalar hamon iqtisodchi olimlar, amaliyotchilar o'ttasidagi qizg'in bahs va munozaralarning predmeti bo'lib kelmoqda. Ayni paytda, taniqli iqtisodiy maktablar ta'sirida davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish bo'yicha maqsad, shakl va usullari bilan farqlanuvchi bir qator nazariyalar shakllandi. Jumladan, monetaristik maktab oqimining yorqin namoyondalari (M.Fridmen, F.Xayek, F.Nayt, G.Saymons va boshqalar) davlatning bozor munosabatlari jarayonlariga tizimli tarzdagi aralashuvi iqtisodiy taraqqiyotga salbiy ta'sir etadi deb, hisoblaydilar [1]. Ularning fikricha, davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi o'rni muomaladagi pul massasini yetarli miqdordorda saqlab qolish, mamlakat iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan soha va tarmoqlarni kreditlash tadbirlarini olib borish va ijtimoiy xarajatlarni chegaralash bilan bog'liq siyosatda aks etmog'i lozim. Davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi rolini ortib borishi bilan bog'liq tendensiyalarning kuchayib borayotganligini institutsionalizm maktabining namoyondalari R.Xeylbroner va L.Turou alohida ta'kidlab o'tadilar [2]. Ularning fikricha, iqtisodiy rivojlanishga siyosiy omilning ta'siri ortib borishi natijasida bozor jarayonlarini tartibga solishda ishtirot etuvchi bir qator institutlar paydo bo'lmoqda. Iqtisodiyotni tartibga solishda davlat aralashuvining zaruriyati bozor mexanizmining nomukammalligi va ayni paytdagi jamiyat taraqqiyotidagi muammolarni hal etishga qodir emasligi bilan izohlanadi.

Shuni ta'kidlab o'tish zarurki, iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashda davlatning roli kuchayib borishini nazarda tutuvchi yo'nalish – liberal maktab nomoyondalarining fikrlari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, iqtisodiy integratsiyaning kuchayishib borishi va Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish bilan bog'liq jarayonlarda mamlakatlar uchun oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar zaruriyati vujudga keldi.

Turli mamlakatlarda oziq-ovqat bozorini tartibga solishdagi muayyan usullarga ustuvorlik berish masalasi turlicha hal etiladi. Har bir davlatning agrar sohada qo'llaydigan proteksionizm siyosati mamlakatni asosiy tur-



dagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanganligi, agrar ishlab chiqarishi va uning sanoatlashuv darajasi bilan bog'liq. Jumladan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida oziq-ovqat mahsulotlarini ortiqcha yetishtirish muammosi mavjud va bu agrar siyosatni belgilashda eng muhim omillardan biri sanaladi. Ayniqsa, AQSHda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish jarayoni doimiy ravishda davlat tomonidan tartibga solinishi bilan ajralib turadi, milliy oziq-ovqat bozori esa yuqori darajada himoyalangan.

Odatda, har qanday iqtisodiy sohani tartibga solishning an'anaviy usullari kabi oziq-ovqat bozorini tartibga solish usullari ham ikki yo'nalishda, ya'ni iqtisodiy va ma'muriy yo'nalishda olib boriladi. Ushbu usullardan foydalanayotgan har bir mamlakat, albatta uni qonuniy hujjatlar bilan mustahkmlagan holda amalga oshiradi. Belgilangan qonuniy me'yirlarni bajarilishi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga qarab majburiy yoki tavsiyaviy bo'lishi mumkin.

Agrar sohada o'zini-o'zi tartibga solishning bozor mexanizmi hatto sanoat bilan paritetli baholar va daromadlarda ham talab bilan taklifning muvozanatini ta'minlay olmaydi. Shuning uchun talabning kengaytirishga va uni o'sib boruvchi taklif bilan muvozanatlashtirishga yo'naltirilgan oziq-ovqat bozorini davlat tomonidan tartibga solish siyosati zarur bo'ladi.

Oziq-ovqat bozorini davlat tomonidan tartibga solish zaruriyati qo'yidagi tarmoq va mintaqaviy xususiyatlarga bog'liq:

oziq-ovqat mahsulotlari aholining birlamchi ehtiyojlari tarkibiga kirishi va iste'molning kundalik me'yori bois narx bo'yicha elastiklikni nisbatan pastligi; oziq-ovqat mahsulotlarining taqchilligi mamlakatda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy inqirozlarni yuzaga keltirishi;

oziq-ovqat mahsulotlari importiga qaramlik mamlakatni ushbu mahsulotlarni yetkazib beruvchi davlatlarning siyosiy ta'siriga uchrashi; ovqatlanish tarkibi va sifati ko'p jihatdan millatning salomatligi va mehnatga layoqatini ta'minlashi;

oziq-ovqat mahsulotlari tabiiy-iqlim va biologik takror ishlab chiqarish jarayonlari bilan bevosita bog'liqligi; davlatning oziq-ovqat xavfsizligi siyosati ta'sirida turli darajadagi raqobat muhiti;

mintaqalarning tabiiy-iqlim sharoitlari, agroresurs salohiyati va iqtisodiy rivojlanishidagi farqlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari iste'molining milliy an'analari;

aholi daromad darajasining hududiyy farqlanishi va boshqalar.

Bunday sharoitda davlatning oziq-ovqat bozorini boshqarish va qo'llab-quvvatlashdan voz kechishi, mamlakatning oziq-ovqat fondini shakllantirishni xususiy tuzilmalar ixtiyoriga tashlab qo'yishi agrar sektorda jiddiy yo'qotishlarga va inqiroz holatiga olib keladi. Shuning uchun tarmoq va mintaqaviy xususiyatlarni e'tiborga olib oziq-ovqat bozorini davlat tomonidan tartibga solish yo'nalishlari belgilanadi.

Birinchidan, oziq-ovqat bozorini davlat tomonidan tartibga solishda mintaqalar xususiyatlarini chuqur e'tiborga olinishi talab etiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy sharoitlar tufayli agrar sohani isloh qilishning barcha mintaqalar uchun yagona modelini majburlab joriy etish maqsadga muvofiq emas. Hukumat darajasida belgilangan qoidalar asosida mahalliy hokimiyat organlari mintaqaning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda islohotlarni olib borishi va bunda maqbul strategiyani ishlab chiqishlari lozim.

Ikkinchidan, oziq-ovqat bozorini barqaror rivojlanishning ustuvor shart-sharoitlarini ta'minlashda davlat tomonidan ijtimoiy yo'naltirilgan agrar siyosatni olib borishni taqozo etadi. Bu siyosatning maqsadi – qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarining daromadlarini xalq xo'jaligi darajasida bo'lishiga erishishdir.

Uchinchidan, so'nggi yillarda oziq-ovqat xavfsizligi darajasiga baho berilar ekan, uning chegarasi tig'iz darajadan ancha yuqorida bo'lsada, lekin zamonaviy talablar uchun hali yetarli emasligini tan olish lozim. Bunda oziq-ovqat fondini shakllantirishning asosiy manbai sifatida davlat tomonidan samarali tartibga solish chora-tadbirlari talab etiladi.

To'rtinchidan, oziq-ovqat mahsulotlari importini tartibga solish masalasi nisbatan murakkab ko'rinish oladi. Bu bir tomonдан, oziq-ovqat mahsulotlari taqchiligidini bartaraf etish bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, mahalliy ishlab chiqaruvchilarining manfaatlarini himoyalash masalasining oqilona tarzda hal etilishi bilan bog'liq.

Beshinchidan, oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib beruvchi davlatlarning o'z xukmini o'tkazishga urinishlaridan saqlanish lozim. Ushbu davlatlar ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda ma'lum ssenariy bo'yicha harakat qiladilar. Avvaliga insonparvarlik yordami ko'rsatiladi, keyin mahsulotni tijorat asoslarida past baholarda yetkazib berish orqali milliy qishloq xo'jaligi vayron qilinadi.

Shundan so'ng eksportchining o'z hukmini o'tkazishi boshlanadi. Bunday kelajakka mahkum bo'lmaslik uchun agrar sektorni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, milliy ishlab chiqarish hajmida bazaviy mahsulotlar barqarorligini saqlash va eksport uchun yetarli darajada bo'lishiga erishish zarur.

Umuman olganda, oziq-ovqat zahiralarini shakllantirishning izchil rag'batlantirish mexanizmlarini ishga solish, oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab va taklifning dinamik muvozanatiga erishish uchun qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini davlat tomonidan tartibga solishning kuchli va salmoqli choralar ko'riliishi maqsadga muvofiq.



Yuqorida keltirilgan davlat tomonidan oziq-ovqat bozorini tartibga solish yo'nalishlari, eng avvalo, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ichki bozorni rivojlantirish, ishlab chiqaruvchilarni doimiy qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi. Ayni paytda, mamlakat aholisinining barcha qatlamlarini tibbiy me'yorlarga muvofiq tarzda ovqatlanishi va bu orqali millatning salomatligini oshirish birinchi galdeg'i vazifa sifatida qaraladi. Odatda O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari importini tartibga solish masalasi nisbatan murakkab ko'rinish oladi. Buning asosiy sabab-lari sifatida bir tomonidan, mamlakatimizda yetishtirish imkonii mavjud bo'lmasligi qishloq xo'jaligi mahsulotlari taqchiligini bartaraf etish bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomonidan, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning manfaatlarini himoyalash masalasi oqilonaga tarzda hal etilishini ko'rsatish mumkin.

Mamlakatimizda oziq-ovqat bozorini tartibga solishda uning tarkibiy mexanizmini atroflicha ishlab chiqil-mog'i lozim. Bu borada mamlakatimizdagi olib borilayotgan tadbirlar va ko'p yillik tajribalar oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga, ya'ni taklifni rag'batlantirishga qaratib kelinayotganligi ta'kid-lash mumkin. Lekin, bozor muvozanatiga erishish uchun nafaqat yalpi taklifni, balki yalpi talabni ham tartibga solish, undagi siljishlar, keskin ko'tarilish va pasayishni ham e'tiborga olish maqsadga muvofiq.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Захарченко В.И. Сумма знаний в экономике. – Одесса: Наука и техника, 2008. –Т. 1. – С. 140.
2. Хейлбронер Р., Туруо Л. Экономика для всех. Пер. с англ. – Новосибирск: «Экор», 1994. – С. 80-83.
3. Sotvoldiev N., Bannoev Sh. Specialization and socio-economic significance of the local food market// J. NeuroQuantology. – London: № 15, 2022. – pp. 2479-2484. <http://www.neuroquantology.com>
4. Абулқосимов Х.П., Расулов Т.С., Мамарахимов Б.Э., Шарипов К.Б. Ўзбекистонда озиқ-овқат саноатини ривожлантириш истиқболлари// Ж. Ученый XXI века. –М.: 2016 № 5-4 (18). 77-82-б. <http://www.colloquium-publishing.ru>
5. Абдулқосимов Ҳ.П., Расулов Т.С. Ўзбекистонда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш йўллари. –Т.: Фан ва технология, 2015. – 88 б.
6. Қурбонов Ж.Қ., Зокиров Ш.Э. Ўзбекистоннинг мева-сабзавотчилик соҳасидаги салоҳиятидан янада кенгроқ фойдаланиш имкониятлари// ИЭЖ. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. –Т.: 2016 № 4. <http://www.iqtisodiyot.uz>



# MUNDARIJA

I shu'ba

IJTIMOIY-IQTISODIY BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISH UCHUN "YASHIL" IQTISODIYOTGA  
JADAL O'TISH

Section I

ACCELERATED TRANSITION TO A GREEN ECONOMY TO ACHIEVE SOCIO-ECONOMIC SUSTAINABLE  
DEVELOPMENT GOALS

I секция

УСКОРЕННЫЙ ПЕРЕХОД К "ЗЕЛЕНОЙ" ЭКОНОМИКЕ ДЛЯ ДОСТИЖЕНИЯ ЦЕЛЕЙ СОЦИАЛЬНО-  
ЭКОНОМИЧЕСКОГО УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

|   |    |
|---|----|
| The Development of Marketing Innovations in Retail Trade .....  | 4  |
| <b>Shakhriyor Sadullaev, Sadullayeva Shahrizoda</b>   |    |
| Направления совершенствования стратегии компании для успешной организации IPO .....                         | 9  |
| <b>Шахзод Сайдуллаев</b>  |    |
| "Yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish .....                     | 11 |
| <b>Abdurahmonov Xolboy To'xtayevich</b>   |    |
| Тўқимачилик саноати кластерлари инновацион фаолиятининг барқарор ривожланиш<br>муаммолари ва ечимлари ..... | 14 |
| <b>Икрамов Мақсад Муратович</b>   |    |
| O'zbekistonda chakana savdo korxonalarini rivojlanishi va innovatsion faoliyati .....                       | 20 |
| <b>Karimov Baxrom Ilhomjonovich</b>   |    |
| Unveiling the Dynamics of Agglomeration Economies in Sustainable Development .....                          | 24 |
| <b>Khakimov Ziyodulla Akhmadovich</b>   |    |
| Kimyo tolalari asosida to'qimachilik mahsulotlari bozorini diversifikatsiyalash usullari .....              | 28 |
| <b>Raximov Furqat Jalolovich</b>  |    |
| Qashqadaryo viloyatida Safari turizmini rivojlantirish dinamikasini o'rganish .....                         | 32 |
| <b>Ro'ziyev Bobir Akramovich</b>  |    |
| Брендни шакллантириш ва ривожлентериш бўйича замонавий<br>маркетинг назариялари ва стратегиялари .....      | 34 |
| <b>Зияева Шахло Шоакбар қизи</b>  |    |
| The Development of Marketing Innovations in Retail Trade .....  | 37 |
| <b>Shakhriyor Sadullaev, Sadullayeva Shahrizoda</b>   |    |
| Ногиронлиги бор шахсларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш масалалари .....                                | 42 |
| <b>Каримов Бекзоджон Илхомович</b>  |    |
| Ichki turizmni rivojlanlantirish tashkiliy mexanizmining asosiy prinsiplari .....                           | 45 |
| <b>Dehqonov Burxon Rustamovich</b>  |    |
| "Yashil" iqtisodiyotga o'tishda ko'zi ojizlar bandligining innovatsion yechimi .....                        | 48 |
| <b>Usmonov Ziyodulla Ulmas o'g'li</b>   |    |
| Auditorlik tekshiruvini halqaro standartlar asosida tashkil этиш хусусиятлари .....                         | 51 |
| <b>Исмоилова Феруза Исройловна</b>  |    |



## II shu'ba

"YASHIL" IQTISODIYOTGA INNOVATSIYALARNI KENG JORIY ETISHDA  
ILMIY TADQIQOT ISHLARINING LOYIHAVIY ISTIQBOLLARI

## Section II

DESIGN PERSPECTIVES FOR RESEARCH WORK ON THE WIDE IMPLEMENTATION  
OF INNOVATIONS IN THE GREEN ECONOMY

## II секция

ПРОЕКТНЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ РАБОТ  
ПО ШИРОКОМУ ВНЕДРЕНИЮ ИННОВАЦИЙ В "ЗЕЛЕНУЮ" ЭКОНОМИКУ

|   |     |
|---|-----|
| Ta'minot zanjirini boshqarishda transport logistikasi usullarini takomillashtirish.....                             | 56  |
| <b>Zoxidova Nazokat Berdimurot qizi</b>   |     |
| Rivojlanayotgan mamlakatlarda fond bozorining rivojlanishi tahlili.....   | 58  |
| <b>Axmedov Doniyorbek Ulugbek o'g'li</b>  |     |
| Davlat moliyasini boshqarishda moliyaviy nazorat usullaridan samarali foydalanish yo'llari .....                    | 60  |
| <b>Kultayev Farxod Shavkatovich</b>   |     |
| Янги Ўзбекистонда инсон экологиясини юксалтиришнинг инновацион механизмлари .....                                   | 62  |
| <b>Ҳакимов Назар Ҳакимович, Раҳмонов Дўстмурод Абдиназарович</b>  |     |
| Tadbirkorlik sубъектларини ривожлантиришда саноат ипотекасининг ўрни .....  | 67  |
| <b>Султанов Баҳром Бегдуллаевич</b>   |     |
| Ижтимоий ҳимояни ривожлантиришда янгича ёндашувлар .....  | 70  |
| <b>Каримов Бекзоджон Илхомович</b>  |     |
| Kapital bозорини ривожлантириш масалалари .....   | 72  |
| <b>Турдиева Узайда Омираевна</b>  |     |
| Инновацион тараққиёт йўлига ўтиш даврида меҳнатга ҳақ тўлашнинг рағбатлантирувчи таъсирини оширирилиши .....        | 74  |
| <b>Алимжон Қулматов</b>   |     |
| Zamonaviy logistika tizimida marketing strategiyalaridan foydalanishni takomillashtirish .....                      | 78  |
| <b>Xasanov Sarvar Ulug'bek o'g'li</b>   |     |
| The Development of Marketing Innovations in Retail Trade.....   | 81  |
| <b>Shakhriyor Sadullaev, Sadullayeva Shahrizoda</b>   |     |
| Innovatsion rivojlanishni baholovchi statistik ko'rsatkichlar tizimini takomillashtirish (xorij tajribasi) .....    | 86  |
| <b>Nuriddinov Zufar Akbarovich</b>  |     |
| Maxsus иқтисодий зоналар фаолияти самарадорлигини ошириш борасида амалга оширилаётган ишлар тўғрисида.....          | 90  |
| <b>Давлаев Фолиб Ашуревич</b>   |     |
| Hududlarning iqtisodiy jihatdan rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyot va "yashil" ish o'rinalarining ahamiyati..... | 92  |
| <b>Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor og'li</b>   |     |
| Innovatsion menejment va raqamli transformatsiyalar jarayonlarini samarali boshqarish yo'llari .....                | 94  |
| <b>Safarova Dilfuza Baxramovna</b>  |     |
| Ижтимоий харажатларни молиялаштиришнинг асосий масалалари .....   | 99  |
| <b>Тураев Очил Ярашевич</b>   |     |
| Инсофли солиқ тўловчиларни кўпайтириш – солиқ кўрсаткичларининг муҳим омили сифатида.....                           | 102 |
| <b>Абдурасулов Алишер Абдурасулович</b>   |     |
| Ўзбекистоннинг солиқ сиёсати – макроиқтисодий барқарорликни таъминлашнинг муҳим омилидир...                         | 106 |
| <b>Хотамов Алишер Фарходович</b>  |     |
| Mулкий муносабатларни ривожлантиришга таъсир этувчи омилларни тартибига солиш ва самарали бошқариш усуллари .....   | 109 |
| <b>Бобобеков Эргаш Абдумаликович</b>  |     |



## III shu'ba

YANGI O'ZBEKISTONDAGI KO'P VEKTORLI, PROGMATIK, KONSEPTUAL ISLOHOTLARIDA "YASHIL" IQTISODIYOTNI KENG JORIY ETISH ORQALI TARKIBIY O'ZGARTIRISHLARNI CHUQURLASHTIRISH

## Section III

DEEPENING STRUCTURAL CHANGES DUE TO WIDE IMPLEMENTATION OF "GREEN" ECONOMY  
IN MULTI-VECTOR PROGRAMMATIC, CONCEPTUAL REFORM IN THE NEW UZBEKISTAN

## III секция

УГЛУБЛЕНИЕ СТРУКТУРНЫХ ПЕРЕМЕН ЗА СЧЕТ ШИРОКОГО ВНЕДРЕНИЯ "ЗЕЛЕНОЙ" ЭКОНОМИКИ В  
МНОГОВЕКТОРНЫХ ПРОГРАМАТИЧЕСКИХ, КОНЦЕПТУАЛЬНЫХ РЕФОРМАХ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

|  |     |
|--|-----|
| Инклюзив иқтисодий ўсиш: назария, муаммо ва уларнинг ечимлари.....   | 113 |
| Тангрибердиев Сулаймон Камилжонович  |     |
| O'zini o'zi band qilgan shaxslardan olinadigan soliqlarni takomillashtirish orqali yashirin iqtisodiyotni jilovlash masalalari.....  | 116 |
| Davranov Iskandar Jumayevich   |     |
| Предпосылки развития зелёного финансирования коммерческими банками Узбекистана .....   | 123 |
| Шадиева Дилдора  |     |
| Тижорат банкларининг молиявий барқарорлигини ошириш йўллари.....   | 125 |
| Йўлдошев Сафармурод Муҳаммадович   |     |
| Анализ и оценка учета финансовых результатов и направления его к совершенствованию.....  | 128 |
| Шин Инесса Олеговна  |     |
| Soliq ma'muriyatçiligini raqamlashtirish orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirishning ustuvor yo'nalishlari ...  | 132 |
| Davranov Iskandar Jumayevich   |     |
| Йирик инвестиция лойиҳаларини ишлаб чиқиш, самарали молиялаштириш манбаларини аниқлаш ва уларни амалга оширишда юзага келадиган асосий хатарлар (рисклар)ни таҳдил қилиш ("Олмалиқ КМК" АЖ мисолида) ..... | 135 |
| Аббосхон Азимов Гайратиевич  |     |
| Тижорат банкларининг молиявий барқарорлигини ошириш йўллари .....  | 139 |
| Йўлдошев Сафармурод Муҳаммадович   |     |
| Корпоратив тузилмаларда дебитор қарздорликнинг иқтисодий моҳияти ва асосий мезонлари .....   | 142 |
| Мустафаева Шахло Мирзакуловна  |     |
| Тижорат банкининг комплаенс назорати, унинг моҳияти ва аҳамияти.....   | 145 |
| Юнусов Баҳтиёр Шавкатович  |     |
| O'zbekiston Respublikasida zamonaviy bank xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari .....   | 149 |
| Kadirov Laziz  |     |
| Xorijiy mamlakat banklarida ilk bor komplayens nazoratiga bo'lgan ehtiyoj hamda sanksiyon komplayensning o'ziga xos xususiyatlari.....   | 152 |
| Yunusov Baxtiyor Shavkatovich  |     |
| Raqamli iqtisodiyotda rivojlangan davlatlar tajribasi asosida mehnat unumdarligini oshirish asoslari.....  | 154 |
| Abduraimov Abdulaziz Ulug'bek o'g'li   |     |
| Yer va suv resurslaridan samarali foydalanish asosida o'simlikchilik samaradorligini oshirish .....  | 157 |
| Khalimova Dilora Olimboyevna   |     |
| Камбағалликни худудларда қисқартиришнинг хорижий тажрибалари.....  | 161 |
| Ҳамдамов Шаҳзод Илҳом ўғли   |     |
| Предпосылки развития зелёного финансирования коммерческими банками Узбекистана .....   | 164 |
| Шадиева Дилдора  |     |
| O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarida innovatsion faoliyatning ahamiyati va o'rni .....  | 167 |
| Ibrohimov Boburmirzo Baxtiyor o'g'li   |     |
| Стратегические подходы к устойчивому экономическому развитию туристической индустрии в Паркентском районе: анализ перспектив и определение вызовов .....   | 172 |
| Гаппарова Майрамхон Зафар қизи   |     |



|   |     |
|---|-----|
| Теоретико-методологический анализ социально-экономического прогресса в контексте туристической индустрии Ташкентской области: стратегический обзор и перспективы..... | 177 |
| Гаппарова Майрамхон Зафар қизи  |     |
| O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarida innovatsion faoliyatning ahamiyati va o'rni .....   | 183 |
| Ibrohimov Boburmirzo Baxtiyor o'g'li  |     |
| Ижтимоий харажатларни молиялаштиришнинг асосий масалалари .....   | 188 |
| Тураев Очил Ярашевич  |     |
| Применение цифровых технологий в противодействии финансовым мошенничествам .....  | 192 |
| Гадаев Ислам Ядгарович  |     |
| Блокчейн-технологии и информационная безопасность в цифровой экономике Узбекистана .....  | 196 |
| Кадыров Алишер Исмаилович   |     |
| Hududlarda aholi bandligini oshirish va kambag'allikni qisqartirishda ishlab chiqarish sanoatining o'rni<br>(Qashqadaryo viloyati misolida) .....                     | 200 |
| Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Baxronov Baxriddin Najmiddinovich  |     |
| Turistik destinatsiyalar infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish yo'llari .....   | 204 |
| Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li  |     |
| Tijorat banklari kredit portfelini samarali boshqarish .....  | 209 |
| Adilov Mirkomil Miralimovich  |     |
| Mamlakatimizda jismoniy shaxslar bo'yicha kredit yuki tahlili .....   | 212 |
| Abdusalomov Jaxongir O'ktam o'g'li  |     |
| Davlat oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlari xarajatlari .....   | 216 |
| Abduraxmanov Otabek Patidinovich  |     |
| Oziq-ovqat bozorini davlat tomonidan tartibga solish yo'nalishlari .....  | 219 |
| Abduraxmonov Adxamjon Sultonboyevich  |     |
| Makroiqtisodiy barqarorlikni ko'rsatkichlarning ijtimoiy omillari va ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirish<br>yo'nalishlari .....                                    | 222 |
| S.M.Xolxo'jayev   |     |
| Oziq-ovqat bozorini davlat tomonidan tartibga solish yo'nalishlari .....  | 225 |
| Abduraxmonov Adxamjon Sultonboyevich  |     |

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

## 2024. Maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oly ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oly attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.